

## SHE'RIYATDA AGIOGRAFIK OBRAZLARNING BADIY-ESTETIK TALQINI

Shahodat Isakjanova

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.21472902>**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada she'riyatda agiografik obrazlarning badiiy-estetik talqini, ularning poetik vazifasi hamda ma'naviy-axloqiy mazmunni ifodalashdagi o'rni tahlil qilinadi. Agiografik obrazlarning diniy, tasavvufiy va madaniy an'analar bilan bog'liqligi, ularning ramziy mohiyati hamda zamonaviy she'riyatdagi badiiy talqin xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, ushbu obrazlar orqali inson kamoloti, komil inson g'oyasi va milliy-ma'naviy qadriyatlarining poetik ifodasi ilmiy-nazariy asosda baholanadi.

**Kalit so'zlar:** agiografik obraz, she'riyat, badiiy talqin, estetik tafakkur, poetika, tasavvuf, avliyo obrazi, ramziylik, ma'naviy qadriyatlar, badiiy-estetik konsepsiya.

**Аннотация.** В статье рассматривается художественно-эстетическая интерпретация агиографических образов в поэзии, их поэтические функции и роль в раскрытии духовно-нравственного содержания произведений. Анализируются особенности связи агиографических образов с религиозной, суфийской и культурной традициями, их символическая природа, а также специфика художественного осмысления в современной поэзии. Особое внимание уделяется воплощению идеи духовного совершенства человека и национально-культурных ценностей посредством агиографических образов.

**Ключевые слова:** агиографический образ, поэзия, художественная интерпретация, эстетика, поэтика, суфизм, образ святого, символизм, духовные ценности, художественная концепция.

**Abstract.** This article examines the artistic and aesthetic interpretation of hagiographic images in poetry, focusing on their poetic functions and their role in expressing spiritual and moral values. It explores the relationship between hagiographic images and religious, Sufi, and cultural traditions, highlighting their symbolic nature and the distinctive features of their artistic representation in modern poetry. The study also evaluates how these images contribute to the poetic expression of human spiritual perfection and national-cultural values from a literary and theoretical perspective.

**Keywords:** hagiographic image, poetry, artistic interpretation, aesthetics, poetics, Sufism, saintly image, symbolism, spiritual values, artistic-aesthetic conception.

O'tgan asrlarda jahon adabiyotshunosligida agiografiya muqaddas shaxslarning hayoti, faoliyati va ma'naviy kamolotini tasvirlovchi adabiy janr sifatida shakllandi. "Agiografiya" atamasi yunoncha *hagios* – "muqaddas", *grapho* – "yozaman" so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, lug'aviy ma'noda "muqaddas shaxslar haqida yozish"ni anglatadi. Alice-Mary Talbotning ta'kidlashicha, ushbu atama muqaddas erkak yoki ayolning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan diniy-ma'rifiy asarlarni, shuningdek, avliyolar va ularga oid adabiyotni o'rganuvchi ilmiy yo'nalishni ham ifodalaydi. Shu bilan birga, amerikalik olim Thomas J. Heffernan muqaddas biografiyaning asosiy vazifasi tarixiy voqealarni shunchaki bayon etish emas, balki alohida shaxs namunasi orqali e'tiqod haqiqatini o'rgatish ekanini ta'kidlaydi. Bu esa agiografik asarlarning didaktik va ma'naviy-estetik mohiyatini namoyon etadi. Dastlab ushbu janr Rim imperiyasi davridagi nasroniy an'analar negizida yuzaga kelgan bo'lsa-da, keyinchalik boshqa

diniy va madaniy muhitlarda ham rivojlanib, badiiy adabiyotning turli janrlariga, jumladan, she'riyatga ham kirib bordi. Vaqt o'tishi bilan agiografiya faqat diniy-biografik asarlar doirasidagina qolib ketmadi. Ushbu tushuncha badiiy adabiyotning turli janrlarida, xususan, she'riyatda ham o'ziga xos badiiy hodisa sifatida namoyon bo'la boshladi. Chunki she'riyat insonning ma'naviy olami, ruhiy kechinmalari va ilohiy haqiqatni anglash jarayonini badiiy ifodalashning eng ta'sirchan vositalaridan biridir. Shu bois shoirlar muqaddas shaxslar, avliyolar, payg'ambarlar, diniy timsollar va tasavvuf qahramonlarini nafaqat tarixiy shaxs, balki yuksak ma'naviy ideal timsoli sifatida ham poetik talqin qiladilar.

Agiografik obrazlarning she'riyatdagi vazifasi oddiy qahramon yaratish bilan cheklanmaydi. Bunday obrazlar ezgulik, sabr, tavba, fidoyilik, poklik, ilohiy muhabbat va komil inson g'oyalarini badiiy ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, Sharq mumtoz adabiyotida Muhammad (s.a.v.), Ibrohim, Nuh, Yusuf, Ayyub, Iso Masih, Muso, Zakariyo, Hazrati Ali, Bibi Robiya Adaviya, Mansur Halloj, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Xoja Ahror Valiy singari tarixiy va diniy shaxslar obrazlari yuksak ma'naviy kamolot ramzi sifatida talqin etilgan. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida esa bu obrazlar yangidan yangi falsafiy-estetik ma'nolarga ega bo'lib, insonning ichki olami, milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'un holda tasvirlanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, bugungi adabiyotshunoslikda agiografik obraz tushunchasi faqat diniy shaxslarning tarjimaiy holini ifodalovchi unsur emas, balki muayyan badiiy konsepsiyani shakllantiruvchi poetik vosita sifatida ham baholanmoqda. Shoirlar muqaddas shaxs obraziga murojaat qilish orqali zamonaviy insonning ma'naviy izlanishlarini, ruhiy inqirozini yoki komillikka intilishini ramziy tarzda ochib beradilar. Shu jihatdan, agiografik obrazlar she'riyatning falsafiy qatlamini boyituvchi, uning estetik ta'sirchanligini kuchaytiruvchi muhim poetik hodisa hisoblanadi.

O'zbek she'riyatida agiografik obrazlarning badiiy talqini alohida ilmiy tadqiqotni talab qiladigan masalalardan biridir. Chunki bunday obrazlar diniy manbalar, xalq og'zaki ijodi, tasavvuf va zamonaviy badiiy tafakkur uyg'unligida shakllanadi. Natijada tarixiy haqiqat va badiiy to'qima o'zaro qorishib, kitobxonni nafaqat estetik zavqqa, balki ma'naviy mushohadaga ham chorlaydi. Istiqlol davri o'zbek she'riyatida, xususan, Mirzo Kenjabek, Aziz Said, Abduvali Qutbiddin, Halima Ahmedova, Eshqobil Shukur, Faxriyor, Xayrullo Hamidov, Mansur Jumayev, Jontemir Jondorov, Jo'rabek Ramazon, Adiba Umarova, Rashid Xo'jamov kabi shoirlar ijodida agiografik obrazlar an'anaviy diniy talqin bilan bir qatorda ramziy-estetik mazmunni ham qamrab olganligi uchun polifunksional xarakter kasb etadi. Shoirlar muqaddas shaxslar obraziga murojaat qilish orqali insonning ruhiy iztiroblari, ma'naviy tanazzuli, e'tiqod va komillikka intilish g'oyalarini ifodalaydilar. Natijada agiografik obraz tarixiy shaxsni tasvirlash vositasidan ko'ra poetik tafakkurning falsafiy ifoda shakliga aylanadi.

Xullas, agiografik obrazlar she'riyatning ma'naviy-estetik mohiyatini yoritishda muhim o'rin tutadi. Ular milliy va umuminsoniy qadriyatlarni badiiy shaklda ifodalash, komil inson idealini targ'ib etish hamda diniy-ma'naviy merosni zamonaviy poetik tafakkur bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Shu bois istiqlool davri o'zbek she'riyatida agiografik obrazlarning badiiy talqinini o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki ma'naviyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

1. Qobilov U. Ilohiyot va badiiyat. – Toshkent: Nihol, 2008. – 144 b.
2. Heffernan, Thomas J. *Sacred Biography: Saints and Their Biographers in the Middle Ages*. New York: Oxford University Press, 1988.
3. Talbot A. M. Hagiography // *The Oxford Handbook of Byzantine Studies* / Ed. by E. Jeffreys, J. Haldon, R. Cormack. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – P. 862–871.
4. Ahmedova H. Yashil. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 168b.
5. Abduvali Qutbiddin. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Adabiyot, 2026. – 512 b.